

**TARBIYACHILARNING KASBIY MATIVATSİYASINI RIVOJLANTIRISHDA INNAVATSION  
TEXNOLOGIYANING AHAMIYATI**

Masharipova Barno

NDPI 2-bosqich magistri

Yuldasheva Shoxida

NDPI 2-bosqich magistri

**Аннотация.** Maqolada tarbiyachining kasbiy mativatsiyasini rivojlantirishda innavatsion texnologiyalar ahmiyati va tarbiyachining ish faoliyatida ulardan foydalanish usullari o'rganildi. Motivatsiya va kasbiy motivatsiya xususiyatlari tahlil qilindi.

**Kalit so'zlar:** Motivatsiya, motiv, innovatsiya, texnologiya, innavatsion texnologiya, tarbiyachi, bola, ta'lif, mahorat.

**Аннотация.** В статье рассмотрено значение инновационных технологий в развитии профессиональной мотивации воспитателя и способы их использования в трудовой деятельности воспитателя. Проанализированы особенности мотивации и профессиональной мотивации.

**Ключевые слова:** мотивация, мотив, инновация, технология, инновационная технология, воспитатель, ребенок, образование, мастерство.

**Abstract.** The article considers the importance of innovative technologies in the development of professional motivation of the educator and the ways of their use in the work of the educator. The features of motivation and professional motivation are analyzed.

**Keywords:** motivation, motive, innovation, technology, innovative technology, educator, child, education, skill.

Innovatsion texnologiyalar jadallik bilan rivojlanib borayotgan bugungi davrda, ushbu texnologiyalar mакtabgacha ta'limda ham ustuvor ahmiyat kasb etmoqda. Ayniqsa yurtimizda keyingi yillarda ko'plab izlanishlar natijasi sifatida yangicha yondashuvdag'i ta'limi faoliyatlar amaliyotga tadbiq etilmoqda. Chunki innovatsion texnologiyalar ta'lif samaradorligini ta'minlabgina qolmay, bolalarda tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda ham beqiyos o'rinni egallaydi. Zero, yurtboshimiz Sh. Mirziyoyev aytganlaridek: "Bugun biz davlat va jamiyat hayotining

barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo'liga o'tmoqdamiz. Bu bejizga emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi.

Bugungi kunda har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishda yoshlarning intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish va ularni komil inson qilib voyaga yetkazish – davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Chunki jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk bolalar kelajagimiz poydevoridir. Kelajagimiz ko'zgusi hisoblangan bolalarni har tomonlama rivojlantirish va kamol toptirishda tarbiyachining

kasbiy faoliyatida innovatsion texnologiyalardan foydalanish mahorati alohida ahamiyatga egadir.

Hozirda ta'lif jarayoni oldiga qo'yilgan asosiy buyurtma jamiyatga raqobatbardosh mutaxassisni yetishtirib berishdan iborat. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, ko'pchilik ish beruvchilar mustaqil o'qib o'rghanish, zarur hollarda tezkor va samarali qaror qabul qilish, o'z faoliyatini doimiy tahlil qilish (refleksiya) ko'nikmalariga ega bo'lgan xodim bilan shartnama tuzishni ma'qul ko'radilar. Shuning uchun ham tarbiyachi avvalo, bilimli bo'lishi, o'zi yashab turgan ulkan hayotini bilishi, tabiat va jamiyatning qonuniyatlarini tushunishi, ijtimoy faol

bo'lishi, umumiyligi va muktabgacha tarbiya pedagogikasini, bolalar ruhiyati va fiziologiyasini egallashi va bolalarning yosh xususiyatlarini bilishi, ish faoliyatiga yangi innovatsiyalarni kiritishi va innovatsion texnologiyalardan mohirona foydalana bilishi kerak. Shuningdek, pedagogik tarbiyachining hodisalarni tahlil qilishga ilmiy nuqtai nazardan yondashuvi bolani har tomonlama rivojlantirish muvaffaqiyatini amalga oshirishga imkon beradi. Buning uchun o'sib kelayotgan yosh avlodni bilimlar bilan qurollantirish milliy qadriyatlarimiz, ma'naviyatimizni tiklash jahon madaniyati, milliy madaniyatimiz durdonalari bilan tanishtirish, ularni jismoniy sog'lom ma'naviy yetuk qilib tarbiyalashdek vazifalar qo'yildi. Bu vazifalarni bajarish uchun tarbiyachi o'z ustida ishlashi, kasbiy mahoratini rivojlantirishi va innovatsion texnologiyalarni ta'lif jarayoniga olib kirishi zarurdir.

Texnologiya tushunchasi "Texnologiya"- grekcha "techne" so'zidan olingan bo'lib, mahorat, hunar va "logos"- tushuncha, ta'limot ma'nosini anglatadi. Texnologiya samarali vositalar yordamida ishlab chiqarishda mahsulotning sifat o'zgarishga olib keluvchi tizimli usullar yig'indisidir.

"Innovatsion texnologiya- ta'lif maqsadlariga va shaxsning rivojlanishiga qaratilgan pedagogik faoliyatni mutassil ravishda rivojlantirish tizimini loyihalashdir". Pedagogik texnologiyalar ta'lif- tarbiya jarayoniga o'ziga xos bo'lgan innovatsion yondashuvdir. U pedagogikada ijtimoiy- muhandislik tafakkurining ifodasi, o'qitish, tarbiyalash jarayonini ma'lum darajada standart holatga solidi.

Motivatsiya tushunchasiga ko'plab xorijiy olimlar: A.Bandur, S.Zanyuk, G.Ayzenk, V.Aseev, D.Braun G.Myurey, A.Rean, V.Stolina, X.Xekxauzen, F.Xoppe va boshqalar o'zlarining ilmiy ishlarini bag'ishlagan.. Ular orasida kasbiy motivatsiyani to'liq o'rgangan olimlar V.Biryuk, A.Verbitskiy, N.Kuzmin, A.Stupnikov, Ye.Rogov, V.Slastenin va boshqalar hisoblanadi.

"Motivatsiya" va "motiv" tushunchalari bir-biridan farqlanadi. Motiv ayni vaqtida shaxsning ichki holati va uning harakatlarini talab qilish sifatida qaraladi, bunda motiv sifati qiziqish, niyat va ehtiyoj bo'lishi mumkin. Zamonaviy tadqiqot kontekstlariga asoslangan motivatsiya, shaxs tomonidan hayotning ma'lum bir bosqichida shakllanadigan, o'z faoliyatini amalga oshiradigan va yo'naltirilgan shaxsning o'zaro ichki motivining ongli tizimi

sifatida qaraladi. Shuning uchun ham tarbiyachining kasbiy mativatsiyasining shakllanishida va rivojlanishida innavatsion texnologiyalar alohida ahamiyatga ega.

Innovatsion texnologiyalar kun sayin rivojlanib borayotgan bugungi shiddatkor zamonda yosh avlodning ma'naviy-ilmiy dunyoqarashini kengaytirish borasida samaradorlikka erishish zarurati o'sib bormoqda. Bo'lajak pedagog kadrlar faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishi ja'miyat ehtiyojiga aylandi. Yurtimizda yangi Renesans davri poydevorini qurish oliv

maqsadimizga aylanar ekan, buning uchun avvalo kelajak davomchilari bo'lmish farzandlarimiz ta'lif-tarbiyasining har tomonlama mukammal bo'lishi muhim mas'uliyatdir. Shuning uchun bolani erta yosh davridan boshlab yetuk malakali pedagoglar tarbiyasini olishi g'oyatda zarur hisoblanadi. Bilimli va ijodkor murabbiy, albatta, bolani ijobiy rivojlantirishda zamonaviy va

sifatli natijalarni kafolatlay oladigan innovatsion metodlarni bolalar faoliyatida foydalanish yo'llarini izlab topadi.

Bizga ma'lumki, innovatsiyalar uzlusiz ta'lif tizimini rivojlantirishning yetakchi omillaridan hisoblanadi. Ular ta'lif jarayonida bolalarning sifatli bilim olishlarini kafolatlabgina qolmay, ularning intellektual qobiliyati, mustaqillik tafakkurini shakllantirishga, dunyoqarashini kengayishiga olib keladi

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, kasbiy mativatsiyani rivojlantirishda innavatsion texnologiyalar ishtiroki ta'lif jarayonini yanada samarali tashkil qilish imkonini beradi. Xususan, maktabgacha ta'lif tashkiloti tarbiyachisi bolani yangi narsalar, hodisalar dunyosiga jalgan etishi, uni qiziqarli ishlarga jalg qilishi, faoliyat mavzusiga aylantirishi juda qiyin. Bu borada unga kasbiy mativatsiyagini kuch bera oladi. Bu ko'p jihatdan an'anaviy ravishda kelajakdagi maktabgacha ta'lif tashkiloti tarbiyachilarining kasbiy mativatsiyasi bu avvalambor, o'quv faoliyatini rejorashtirish, dasturlarni amalga oshirish, texnologiyalarni o'zlashtirish, bolalar faoliyatini mo'ljalangan jarayon bo'yicha tashkil etishni o'zi ham innavatsion texnologiyadir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Agasieva N.M. Kasbiy motivatsiya talaba shaxsiyati va professionalizmi rivojlanishining harakatlantiruvchi omili sifatida // Zamonaviy fan va ta'lif rivojlanishining dolzarb muammolari – 2018. – 97–98 betlar.
2. Ta'lif shaxs va zamonaviy jamiyatning intellektual –axloqiy salohiyatining rivojlanish omili sifatida – 2018. – 140–143 -betlar.
3. Azizxo'jaeva N.N. O'qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi. –T.: TDPU, 2000.– 52 b
4. 3.М.Рахматова, М.М.Қўзибоева, М.Р.Ахунова Развитие критического мышления студентов// ООО «Институт управления и социальноэкономического развития. Мировая наука.2018. 244-247-бетлар

#### **BO'LAJAK TARBIYACHI PEDAGOGLARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA KASBIY MOTIVATSİYANING AHAMIYATI**